

E'tibor BAXRIDINOVA,
 Andijon davlat universiteti o'qituvchisi
 E-mail: baxridinovaetibor@gmail.com

O'z DJTU v.b.dots.Baxtiyarov Muxtorjon taqrizi asosida

THEORETICAL APPROACHES TO THE SCIENCE OF LINGUISTICS AND CULTURE IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

Annotation

The article talks about the interdependence of language and culture, theoretical views on the science of linguistics, linguistics and intercultural communication.

Key words: Linguistics, culture, language, society, speech, cultural studies.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К НАУКЕ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И КУЛЬТУРОЛОГИИ В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация

В статье рассматривается о взаимозависимости языка и культуры, теоретических взглядах на науку языкознание, лингвистику и межкультурную коммуникацию.

Ключевые слова: Языкознание, культура, язык, общество, речь, культурология.

LINGVOKULTUROLOGIYA FANIGA DUNYO VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI NAZARIY QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi, lingvokulturologiya faniga oid nazariy qarashlar, lingvoo'lkashunoslik va madaniyatlararo muluqot haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Lingvokulturologiya, madaniyat, til, jamiyat, nutq, madaniyatshunoslik.

Kirish. XXI asrda tilshunoslikning tilni shunchaki aloqa quroli va tafakkur natijasi sifatida emas, millatning madaniy omili sifatida tadqiq etadigan sohalarini yuzaga kelmoqda. Til madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u muayyan madaniyat asosida rivojlanadi va uning ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Til shunday hodisaki, u til tashuvchilarning madaniyati va fikrlash tarziga ta'sir qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. 20-asrning so'nggi o'n yilligida mamlakatlarda tilshunoslik, etnolingvistika, psixolingvistika va madaniyatlararo muluqot kabi yangi fanlar chorrahasida yangi ilmiy paradigma yaratildi. Bunga tilshunos Teliya rahbarligidagi Rossiyaning frazeologik maktabi (1986) katta hissa qo'shdi. Bugungi kunda Vorobevning ilmiy hissalari (1993), Stepanov (1995), Shakleyin (1997), Artyunova (1998) va Maslova (2001, 2010) fanning kanonlari hisoblanadi.

Shu tariqda Moskvada to'rtta katta lingvokulturologik maktablar yuzaga keldi, ular quyidagilardir:

1. Stepanovning lingvokulturologik maktabi: bunda madaniyatni diaxronik tavsiflagan. Benvenistlar konseptiga uslubiy yondoshiladi. Yo'nalish turli davrlarda yaratilgan matnlar, tilning faolegasi emas, balki tashqi kuzatuvchi ekanligi nuqtai nazaridan amalga oshiriladi.

2. N.D. Artyunovanning lingvokulturologik maktabi turli xalqlar va davlatlarga oid matnlardagi umummadaniy tushunchalarni tadqiq qiladi. Mazkur madaniy tushunchalar ham tilning faol egasi emas, balki tashqi kuzatuvchisi nuqtai nazaridan o'rganiladi.

3. V.N. Teliya maktabi Rossiyada, hamda xorijda frazeologizmlarni lingvokulturologik tahlil qilish bilan tanilgan. V.N. Teliya va uning izdoshlari lisoniy mohiyatlarni jonli til egasining refleksi nuqtai – nazaridan tadqiq qilishadi. Ya'ni bu madaniyat semantikasini bevosita til va madaniyat subyektini orqali egallashga qaratilgan yo'nalishdir.

4. V.V. Vorobyev, V.M. Shakleyinning lingvokulturologik maktabivakillari Rossiyadagi xalqlar do'stligi universitetida Ye.M. Vereshagin va V.G. Kostomarovlarning ta'limotlarini rivojlantirdilar. [1] So'nggi yigirma yil ichida ham lingvokulturologiya fan sifatida o'z mavqega ega bo'ldi. Bu sohada ko'plab tadqiqotlar olib borildi va lingvokulturologiya madaniyatni til prizmasi orqali aniqlab, aks ettirish bilan ajralib turadigan yangi filologik yo'nalishga aylandi.

Tahlil va natijalar. Lingvokulturologiya jonli milliy til davlat til jarayonlarida namoyon bo'ladigan moddiy va ma'naviy madaniyatni o'rganadigan ijtimoiy fandır. Ushbu fan tilning madaniyatni yaratish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi va namoyon bo'lishidek eng muhim vazifasini belgilab beradi.

Madaniyatshunoslik (kulturologiya) insonning ijtimoiy va madaniy hayotidagi tabiat, jamiyat, tarix, san'at va boshqa sohalariga ko'ra o'zini-o'zi anglashini tadqiq etsa, tilshunoslik tilda olam lisoniy manzarasining mental modellar ko'rinishida aks etadigan va qayd qilinadigan inson dunyoqarashini o'rganadi. [2]

Jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy qoidalar, avvalambor, aloqa orqali o'rganiladi. Masalan, oddiygina yo'l so'rash usulimiz ham madaniyatimizdan darak beradi. Til va madaniyat juda ko'p o'xshashliklarga ega, ikkalasi ham (a) eksklyuziv insoniy, (b) ma'nodor va (c) guruhviy birdam belgi tizimlariga ega. Ularning o'zaro bog'liqligi - ko'pincha fikrlash bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Lingvokulturologiyaning rus tilshunos va madaniyatshunos olimlar tomonidan shu yo'nalishga xos tarzda shakllantirilgan turli xil ta'riflari mavjud. Ulardan ba'zilarini bu yerda misol tariqasida keltiramiz. V.V. Vorobyov lisoniy madaniyatshunoslikni «tilning o'z faoliyatida madaniyat bilan o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini o'rganuvchiva bu jarayonni birliklarning yaxlit tizimi sifatida ularning lisoniy va nolisoniy mazmunini tizimli metodlar va hozirgi zamon prioritetlari va madaniy tamoyillari bilan birlikda aks ettiruvchi sintezlash tipidagi majmuaviy ilmiy mustaqil fan sohasi», deya ta'rifladi. [3] Bundan, tilva madaniyatni yaxlitlikda o'rganish va lisoniy birliklar madaniy belgilarini ajratishda sintezlash usulini qo'llash to'liqroq axborotga ega bo'lish imkonini berishi mumkinligi anglashildi. Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining mental modellarini sifatida aks etuvchi dunyoqarashni o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. Demak aytish mumkinki, lingvokulturologiyaning asosiy maqsadi - madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganishdir.

Lingvokulturologiya bir necha fanlar chorrahasida paydo bo'lganligi sababli, bu fan birinchi navbatda til va madaniyatning o'zaro ta'sirini o'rganadi. Bunda til madaniy mazmunning elagi hisoblanadi. Bunda muhim tadqiqot ob'ekti bu jarayon natijalarini til materialining misolida talqin qilishni o'rganishdir.

Lingvokulturologik tadqiqotning markaziy ob'ekti deganda insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniy boyliklarning lisoniy ifodasi tushuniladi.

Bu turli xil ish qurollardan tortib kundalik narsalarga, odamlarning urf-odatlarini va turmush tarzidan tortib ilmiy fan, san'at, din, axloq va falsafa, qisqacha qilib aytganda, barcha madaniy jabhalarni qamrab oluvchi keng qirrali sohadir.

Ushbu sohaning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Maslova lingvokulturologiyani o'rganish ob'ektlarini qiyidagi guruhlariga ajratadi: [4] 1. Lingvo-o'lkashunoslik tomonidan tadqiq etilgan ekvivalentsiz leksika va lakunalar (qarang Vereshagin/Kostomarov (1987) lingvo-o'lkashunoslik nazariyasi). Bularga, boshqa narsalar qatori, mintaqaviy belgilangan manbalar: tsitata va hikmatli so'zlar, shuningdek siyosiy iboralar va parollar. Bu ekvivalentsiz til birliklari faqat ma'lum bir madaniyatga tegishli belgilari bo'lib, tilning jami funksiyalarining hosilasi sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchilar tomonidan har biri alohida lingvokulturologik birlik bo'lgan bir necha predmetlardan bir nechtasi ajratib ko'rsatilgan:

1) lingvo-o'lkashunoslikning predmeti muqobilsoz so'zlar va lakunalar, shuningdek, lingvokulturologiyaning ham predmetidir; 2) miflashgan til birliklari: arxetiplar, mifologemlar, marosimlar, rasm-rusum hamda odatlar, ular til birliklari tarkibiga yaxlitlangan bo'ladi; 3) tilning paremiologik fondi; 4) tilning frazeologik fondi; 5) etalonlar, stereotiplar, ramzlar; 6) tildagi metaforalar va timsollar; 7) tilning uslubiy imkoniyatlari; 8) nutq madaniyati 9) nutq odobi sohasi.

2) Mifologik kontekstdagi lingvistik birliklar. Bular arxetiplar va mifologiyalar, marosimlar va urf-odatlar, shuningdek, tilda mustahkam o'rin olgan xalq e'tiqodlari.

3) Paremiologik lingvistik fond. Bularga, birinchi navbatda, etnik kelib chiqadigan avtostereotiplaridan kelib chiqadigan maqollar kiradi. Biroq barcha maqollar ham lingvokulturologik jihatdan tadqiq qilinmaydi. Bunda ularning muayyan madaniy jamoaga, ma'lum bir millatga mansubligi, ularning tarixi bilan chambarchas bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi.

4) Haqli ravishda muayyan etnik guruhning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli ma'lumotlar manbai hisoblangan frazeologik til zaxirasi.

Bu ularning afsonalar, an'analar, marosimlar, urf - odatlar, hulqi haqidagi tasavvurlarini o'z ichiga oladi.

5) Prototiplar, stereotiplar, ramzlar. Ular lingvokulturologik jihatdan faqatgina dunyoqarashni emas, balki boshqa xalqlarni idrok etishni tasvirlaydi, chunki ular milliy qarashlardan kelib chiqadi va boshqa etnik ko'rinishlarni aks ettiradi.

6) Metafora va boshqa til tasvirlari. Metafora va boshqa tasvir vositalari lingvokulturologiyaning muhim ob'ektlaridan biridir, chunki u til birliklarini ko'rsatish orqali etnik guruhning madaniy tasavvuridan foydalanadi.

7) Nutqning stilistik shakllari. Nutqning stilistik shakllari lingvokulturologiyaning o'rganish ob'ekti bo'lish bilan birga katta ahamiyatgaham ega. Bu jarayonda tilning mavjud shakllari o'rganiladi. Ba'zi tillarda haddan tashqari dialekt tabaqalanishi kuzatiladi, boshqalarida esa hududiy til navlari o'rtasida deyarli hech qanday farq yo'q. Adabiy til va tilning adabiy bo'lmagan shakllari o'rtasidagi bog'liqlik jamiyatning madaniy tarixining rivojlanishi bilan belgilanadi: yozuv tarixi, maktablar, adabiyot, dunyoqarash, mafkura va boshqalar.

8) Nutqiy muomala. Lingvokulturologiyaning maxsus tadqiqot predmeti sifatida nominativ, grammatik va stilistik ifodalangan birliklarda mustahkamlanadigan katta qiziqish uyg'otadigan nutqiy muomaladir.

9) Nutq odobi sohasi. Nutq odobi-bu lingvistik qoidalar tizimi bo'lib, muayyan jamiyat odamlari tomonidan yaratilgan va jamiyatdagi rollariga ko'ra ijtimoiy va madaniy vaziyatlarga mos tarzda yuzaga keladigan hodisa. Bu madaniy nutq odobiga tegishli hodisa bo'lgani uchun lingvokulturologiyaning o'rganish predmetidir.

Shunday qilib, lingvokulturologiya nafaqat matnlarni, balki jonli tildagi muloqot jarayonlari va ularning xalq madaniyati va mentaliteti bilan aloqasini tadqiq etadi. Biroq, bular til va madaniyat o'zaro ta'sir qiladigan asosiy faol yo'nalishlardir.

Ushbu tadqiqot ob'ektlariga mos ravishda, lingvokulturologiya sohasida ba'zi tadqiqot yo'nalishlari rivojlandi:

Ma'lum bir madaniy davrda muayyan ijtimoiy guruhning, xalqning lingvokulturologiyasi, bu degani aniq lingvokulturologik vaziyatda tadqiqot olib borish.

Ma'lum bir davrda biron xalq lingvokulturologik holatining rivojlanishi va o'zgarishiga qaratilgan diaxronik lingvokulturologiya.

Qarindosh bo'lgan, ma'lum millatga mansub bo'lsada biroq turli xil lingvokulturologik ko'rinishlarga ega bo'lgan qiyosiy lingvokulturologiya.

Va ilmiy rivojlanishini endigina boshlagan kontrastli lingvokulturologiya. U madaniyat/mentalitetni idrok etishni mutlaqo begona nuqtai nazardan o'rganadi.

Lingvo-o'lkashunoslik lug'atlar bilan shug'ullanadigan lingvokulturologik leksikografiya. Bugungi kunda lingvokulturologiyaning yana bir yo'nalishi bo'lgan leksikografiya boshqa yo'nalishlarga nisbatan ancha tez rivojlanib bormoqda. Hozirda bu sohada ko'plab lingvo-o'lkashunoslik lug'atlari yaratilmoqda. D.G. Maltsevaning olmon realiyalari asosida tuzilgan va 25 bobdan iborat lingvo-o'lkashunoslik lug'ati bunga yorqin misol bo'la oladi. Ushbu lug'atda hozirgi zamonaviy nemis tilining leksika va frazeologiyasi lingvo-o'lkashunoslik yo'nalishida yoritib berilgan. Bundan tashqari lug'atning asosiy tarkibi maxsus milliy realiyalardan iborat. Lug'atda til birliklari orqali ushbu o'lka tarixi va madaniyati, tabiati va iqlimi, nemis xalqining turmush tarzi, matbuot va adabiyotga fan, texnika va boshqa sohalarga oid realiyalar til o'rganuvchilar uchun batafsil yetkazilgan [5].

Madaniyatni chuqur o'rganish orqali, uning inson fikrlashi bilan naqadar bog'liqligini sezish mumkin. Chunki, inson o'z madaniyatini orqali ko'z o'ngida aks etgan voqea-hodisalarni ongiga singdirishga harakat qiladi. Zero insonlar muayyan milliy ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lib, ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so'zlashadilar va ular milliy ma'naviyat, uniro'yobga chiqishida muhim o'rin tutadigan til madaniyati va nutq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o'z aksini topadi.

Inson hayotida kerakli predmetlar hamda yuzaga keladigan voqea-hodisalarni madaniyat vositasi deb fikrlash ham mumkin. Masalan, quyoshni yoki oyni madaniyatga kiritish bir jihatdan mumkin emasdek ko'rinadi. Biroq bizga ma'lumki, barcha xalqlar madaniyatida ushbu tushunchalar mavjud. Lekin ba'zi salqin ob-havo sharoitida yashovchi Yevropa xalqlari (slavyanlar va germanlar) quyoshni issiqlik, ardoqlash va iltifot belgilarini sifatida ijobiy baholaydi. Arab davlatlari madaniyatida esa quyosh yoz paytida ularni qiyin ahvolga soluvchi jazirama haroratga tenglashtirib, salbiy baholanadi. Demak, quyoshni faqat tabiat hodisasi emas, balki madaniyat mahsuli sifatida tushunsa bo'ladi.

Til va madaniyatda juda ko'p o'xshashliklarni ko'rish mumkin, ya'ni, ikkalasi ham faqat insonga xos bo'lib, ma'lum ma'noga va guruhiy yaxlit belgi tizimlariga egadir. Ularning o'zaro bog'liqligi - ko'pincha fikrlash bilan birgalikda – nuqtai - nazar, baxolashlar, tadqiqot qiziqishlari va tahlil usullari jihatidan turli xil tadqiqot kontekstlarida aks ettirish ob'ekti xisoblanadi.[6]

XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida xam antroposentrik taxlil ko'rinishlarini namoyon etuvchi tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ilmiy ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika va psixolingvistika sohalarini bo'yicha bajarildi. Mazkur tadqiqotlar, garchi ularda antroposentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki tadqiqot ishlari xisoblanadi. Shuningdek, ularda tilimizning milliy xarakter, urf-odat, qadriyat va an'analarimiz bilan bogliq jihatlari haqida xam ayrim fikrlar bildirilganki, ularni lingvokulturologiya nazariyasiga oid qarashlarning ilk namunalari sifatida baxolash mumkin.

Lingvokulturologiya yo'nalishida o'zbek tilshunosligida ham bir qator izlanishlar olib borilayotganini e'tirof etishimiz darkor. Bu ishlarni o'zbek tilshunosligining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning tadqiqotlarini fikrimizning dalili sifatida aytib o'tishimiz mumkin. Hozirgi kunda bu sohada izlanishlar soni yanada ortib bormoqda desak mubolaga bo'lmaydi. XXI asr boshlaridanoq o'zbek tilshunosligida antroposentrik yo'nalishda bir qancha ishlar amalga oshirildi. Asosan kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika va lingvistik pragmatika sohalarini bo'yicha olib borilgan ishlarda tilimizning o'ziga xos milliy xarakter, qadriyat va urf – odatlarimiz haqida ba'zi fikrlar aytib o'tilgan. Shu boisdan ularni lingvokulturologiyaga doir dastlabki nazariy qarashlar deb baxolashimiz mumkin.

O'zbek tilshunosligi ravnaqiga salmoqli hissa qo'shgan Professor A. Nurmonov ham lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishini e'tibordan chetda qoldirmaydi. Olim bu fanga lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyasi jihatdan yondoshib, E. Sepir va B. Uorf kabi olimlarning qarashlariga o'z fikrlarini bildirish orqali madaniyat va tilning o'zaro bogliqligiga munosabatini bildiradi.

O'zbek tilshunosligiga "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratishi bilan antroposentrik yo'nalishiga o'z hissasini qo'shgan tadqiqotchilardan yana biri tilshunos olim, filologiya fanlari doktori D. Xudoyberganovadir. Olima o'zining monografiyasida ushbu soha bo'yicha umumiy ma'lumotlar bergan. Monografiyada o'zbek tilidagi matnlarni lingvokulturologik tomondan tadqiq etishga qaratilgan. Shu jumladan bunda matn yaratilishida presedent va lingvomadaniy birliklarning, metaforalarning ro'li, o'xshatish mazmunli matnlar va jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik jihatlari alohida ahamiyat berildi. [7]

S.M. Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi tilshunosligimizda tilni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishga qaratilgan navbatdagi ishlardan biri bo'ldi. Ushbu tadqiqotda muallif o'zbek xalqining muloqot paytida o'ziga mos xulqiga ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan yondoshgan.

Shu jumladan dissertatsiyada tadqiqotchining til tizimiga antroposentrik yondashuv deb baxolash joiz bo'lgan qarashlari mavjud bo'lib, ular muloqot xulqining milliy xarakter bilan bogliqligi haqidadir.

S.M. Mo'minovning yozishicha "Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter, millat axolisining o'ziga xos an'analar va urf-odatlarini, qadriyatlarini xisobga olmay turib mutlaqo o'rganib bo'lmaydi. Muloqot xulqi millat xarakterining ajralmas bir qismi bo'lganligi bois, ular bir-biri bilan uzviy bog'langandir". [8] Taniqli o'zbek olimlaridan yana biri Prof. Sh. Safarovning 2006 yilda nashr etilgan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi kognitiv tilshunoslikning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim o'rin oldi. Monografiyada ushbu yo'nalishga oid nazariy qarashlar mujassamlangan. Unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan bogliqligiga alohida urg'u berilganligi e'tiborga molikdir. Bu borada tilshunos til va tafakkur aloqasini teng darajada ko'rmoqlik kerak deb ta'kidlaydi. [9] Aytish mumkinki, madaniyatning tilga ham, tafakkurga ham ta'siri kattadir. Sh. Safarov lingvokulturologiya, shu jumladan, lingvomadaniy konseptga oid nazariy qarashlarga ega bo'lib, ular "Semantika" nomli monografiyasida atroflicha yoritildi. Ushbu monografiyaning 8 – bobi konsept va ma'no haqida bo'lib, olim bunda 55 ta turli qarashlarni tahlil etgan holda konseptga o'z fikrini bildirgan. Uning "Konsept mundarijasida til sohiblarining dunyoqarashi va boshqa turli milliy-madaniy belgilarning aks topishi muqarrar" degan xulosasi bugungi kun lingvokonseptshunosligida ustuvor bo'lgan qarashlar bilan hamohangdir.

Bundan tashqari o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy qarashlarni M.X. Xakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" nomli doktorlik dissertatsiyasida ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari va tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan. Dissertatsiyada matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan. Tadqiqotda muallif lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishdagi muhim roli haqida alohida fikr bildirgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganilishi tarixi ancha uzoq davrni egallaydi. Bu davr davomida olib borilgan ishlarni e'tirof etish muhimdir va aytish mumkinki, lingvomadaniyatshunoslik asrlar davomida tilshunoslikning sohalaridan biri bo'lib rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda u turli madaniy konseptlarni tadqiq etish orqali namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учеб. пособие. М.: Академия, 2010.
2. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya. Toshkent 2019, 16 s.
3. Vorobyev V.V. Lingvokulturologiya. Teoriya i metodi. –M., 1997. 36.b.
4. Maslova, V.: Lingvokulturologiya. Ucheb. pos. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy. Moskva: 2010. Akademiya 37-47 betlar.
5. Маслова В.А. Лингвокультуроология: Учеб. пособие. М.: Академия, 2010, ст.28 -29.
6. Csaba Földes. Prof. Dr. Dr. University of Erfurt (Germany), ordinary member of the Academia Europaea (London) Universität Erfurt /UE. Das Beziehungsgeflecht zwischen Sprache und Kultur: Forschungsrückblick, Zugänge und Beschreibungstendenzen. Article in Glottotheory. International Journal of Theoretical Linguistics · March 2021 DOI: 10.1515/glott-2020-2014.
7. Xudoyberganova. D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent. Fan. 2013.
8. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fanlari d-ri. diss. – T., 2000.
9. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. - Jizzax: Sangzor, 2006.

